E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda iqtisodchi kadrlar tayyorlash holati

Sevara Yaxshiyeva
QarDU magistranti

Rezyume: Mazkur maqolada iqdisodchi kadrlar tayyorlashning huquqiy meyoriy asoslari, mutahasislar tayyorlash jarayonida erishilgan natijalar, iqtisodchilar tayyorlash mexanizmining asoslari va tamoyillari yoritilgan.

Резюме : В данной статье описаны нормативно-правовая база подготовки экономистов, результаты, достигаемые в процессе подготовки специалистов, основы и принципы механизма подготовки экономистов.

Summary: This article describes the legal framework for the training of economists, the results achieved in the process of training specialists, the basics and principles of the mechanism for training economists.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, oliy ta'lim, kadrlar tayyorlash, fan, ta'lim, ishlab chiqarish, integratsiya, iqtisodiyot tarmoqlari, iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash, konsepsiya.

Bugungi kunda jahon miqyosida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilashda mintaqaviy jihatlarini e'tiborga olgan holda yanada takomillashtirish borasida keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada turli shartsharoitlar bilan tafovutlanuvchi mintaqalarda oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashning innovatsion modellarini yaratish, iqtisodiyotning yuqori malakali mutaxassislarga nisbatan tez o'zgarib boruvchi ehtiyojini kadrlar tayyorlashning mavjud imkoniyatlari hamda salohiyati bilan muvofiqlashtirish muammolari tadqiqiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'kidlash kerakki, mintaqalarda kadrlar tayyorlashning sifati va salohiyatini innovatsion-investitsion mexanizmlarini modellashtirish hamda prognozlash jarayonlarini yanada takomillashtirish bu boradagi muhim ilmiy tendentsiyalardan hisoblanadi

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar xalq farovonligini oshirish, insonni har tomonlama kamol toptirish, ma'naviy yuksaltirish, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlari va ta'sir mexanizmlarini yaratishga qaratilgan. Shu bois ham hozirgi kunda malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etayotgan dolzarb muammolardan biri deb qaralmoqda .

O'zbekistonda mustaqillik yillarida oliy ta'lim tizimining holati, rivojlanish tendentsiyalari, ularni boshqarish va moliyalashtirish, marketing va menejmenti, ta'lim bozorini rivojlantirish masalalari iqtisodchi olimllar tomonidan tadqiq etilgan.

Jumladan, oliy ta'limni rivojlantirish vazifalari , bozor munosabatlariga o'tish davrida ta'lim tizimining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'siri , ta'lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish , tadbirkorlik sohasi uchun oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashda boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy omillarini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun sifati, qiymati jihatidan maqbul keladigan adabiyotlar soni yetarli darajada deyish mushkul. Ushbu masala yuzasidan Isamuhammedov o'zining maqolasida batafsil keltirar ekan, nashr qilinayotgan o'quv adabiyotlarining sifati iqtisodchi kadrlarni tayyorlash darajasiga ta'siri yetarlicha emasligini ta'kidlaydi. Ta'lim sohasining barqaror rivojlanishi mamlakatimizning jadal ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning garovidir. Unga erishishda oliy ta'lim tizimida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish asosida ta'lim muassasalarining samarali faoliyatini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish davrida, ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanishni ta'minlash yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishishning yetakchi omili bo'lib hisoblanadi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab taraqqiy etgan mamlakatlar postindustrial axborot davriga o'ta boshladilar. Shu davrdan boshlab asta-sekinlik bilan insoniyat sivilizatsiyasida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, iqtisodiyotda bilimlar ahamiyatining oshishi natijada insonning biosotsial tabiatini o'zgartira oladigan yangi texnologiyalarning kashf etilishi, har bir shaxsning jamg'arilgan axborotlar va bilimlarga erkin kirib foydalana olishi, globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyoti rivojlanishining o'ziga xosligi, iqtisodiy o'sishga axborot va texnologik taraqqiyotga ta'siri kuchayib borayotganligida ifodalanadi. Natijada, umumiy iqtisodiy o'sish nazariyasining tarkibiy qismi sifatida «yangi iqtisodiyot» nazariyasi shakllana boshlanadi . Ma'lumki, iqtisodiy hayotda doimo yangi-yangi muammolar, savollar vujudga kelib turadi. Masalan, qanday qilib millionlab kishilarning faoliyati muvofiqlashtiriladi? Hozirgi murakkab, mislsiz turli-tuman ne'matlar ishlab chiqarilayotgan bir paytda inflyatsiyani qanday qilib tugatish mumkin? Inqirozdan chiqishning qanaqa yo'llari bor? Iqtisodiyotda tushkunlikni to'xtatgach, uni rivojlantirish uchun qanday yo'l tutish mumkin va hokazo. Hech qanday nazariya, kontseptsiya bu savollarga aniq javob, tayyor tavsiya berishga qodir yemas. Chunki har bir mamlakatdagi vaziyat boshqalaridan farq qiladi. Lekin to'g'ri yo'l topish uchun allaqachon boshqalar boshidan kechirgan, ular bosib o'tgan yo'lni o'rganish zarur.

Qamiyatda qaytariladigan tipik faktlarni, aniq voqelikni o'rganib barqaror tendentsiyalarni aniqlash zarur (iqtisodiyot nazariyalaridan)

2012 yil Britaniyaning HSBC bankining "Dunyo 2050 yilda" nomli xisoboti e'lon qilindi. Bank eksperlarining tahlillariga ko'ra, dunyoning eng kuchli iqtisodiyotga ega bo'lishi kutilayotgan 100 mamlakati nomlari e'lon qilindi. Dunyo davlatlari orasida O'zbekiston reyting bo'yicha 51 –o'rinda ro'yxatda turibdi. Bu albatta yaxshi natija

Biroq O'zbekiston bu davr mobaynida bundanda yuqori natijalar ko'rsatishi kutilmoqda.

Bugun biz juda murakkab, qarama-qarshiliklarga to'la dunyoda davlatchiligimizni qurishimiz, mustaqilligimizni mustahkamlashimiz, jahon hamjamiyatida o'zimizning munosib o'rnimizni egallashimiz lozim. Buning uchun mintaqada barqarorlik va milliy xavfsizlik kafolatlarining shart-sharoitlarini aniqlash va ta'minlash bilan birga iqtisodiy jihatdan barqarorlikka erishish yo'lidagi kurashlarda tik tura olishimiz zarur. Bu esa yuqori potentsialga ega, salohiyatli kadrlarni tarbiyalashimizni taqozo etadi. Buning uchun O'zbekisonda bir qator iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, Yangi "2022–2026 YILLARGA

MO'LJALLANGAN YaNGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYoT

STRATEGIYaSI"sida Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish uchun zarur omillar atroflicha keltirib o'tilgan. Ushbu islohotlarni amalga oshishida mamlakat yosh va malakali kadrlar kuchiga tayanadi. Zero, O'zbekiston kelajagi iqtidorli, vatanparvar yoshlar qo'lida.

Literature:

1. https://lex.uz/docs/5841063

2. https://lex.uz/docs/5013007

3. https://strategy.uz.

4. Мамажанов И. Подготовка преподавателей-экономистов в условиях современной рыночной экономики.

Вестник Университета Российской академии образования. № 3/2011. С. 89.

5. И.Каримов. Юксак малакали мутахассислар тараққиёт омили. Т.: Ўзбекистон, 1995; Перегудов Л., Саидов М.

Менежмент и экономика высшего образования. – Т.: Молия, 2001. – 251 с.; Прощецкая Е. Выбирайте

профессию. – М.: Просвещение, 2001; Толипов Ў.Қ., Баракаев М., Шарипов Ш.С. Касбий педагогика. – Т.,

2001; Хўжаев Н., Ҳасанбоев Ж. Иқтисодий педагогика. - Т., 2002; С.С.Ғуломов “Рақамли иқтисодиѐт-кадрлар

тайѐрлашнинг долзарб йўналишлари” Иқтисодиѐт ва илмий инновацион технологиялар илмий электрон

журнал. 2020 йил. №1, январь-февраль; О.Қаххоров. “Ҳудудларда иқтисодчи кадрлар тайѐрлашнинг бошқарув

тузилмасини такомиллаштириш”. Иқтисодиѐт ва илмий инновацион технологиялар илмий электрон журнал.

2018 йил. №5, сентябрь-октябрь.; Б.Исамухаммедов “Малакали иқтисодчи кадрлар тайѐрлаш сифатини

ошириш”. https://tsue.uz/; И.Г.Мамажанов. Подготовка преподователей-экономистов в условиях современной

рыночной экономики. Вестник университета Российский академи образования. №3/2011. с. 89-92;

И.Мамажонов. Қишлоқ хўжалиги соҳаси учун кадрларни тайѐрлашда узлуксиз таълим, фан ва ишлаб

чиқаришнинг интеграциялашувини таъминлаш. Аграр соҳани истиқболли ривожлантиришда ресурс тежовчи

инновацион технологиялардан самарали фойдаланиш” мавзусидаги халқаро илмий-техник анжуман мақолалар

тўплами. Андижон – 2019., Б.310-314.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада

ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. https://lex.uz/.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим

тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.

https://lex.uz/

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада

ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори. https://lex.uz/.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайѐрлаш

сифатини оширишда иқтисодиѐт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-

тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сонли Қарори. https://lex.uz/

10. Tukhtaeva, R. N. (2021). Implementation of the Monetary Policy of the Soviet Government in the Economic Life of

TASSR (1917-1924). REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS, 11(4), 2097-2102.

11. Tukhtaeva, R. N. (2018). MONEY MONITORING POLICY IN BUKHARA AND KHOREZM REPUBLIC.

In Инновационные подходы в современной науке (pp. 230-233).

12. Tukhtaeva, R. N. (2018). HISTORY OF DISPERSE AND MAKING OF TURKESTAN" TURKBON" MONEY.

In Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования (pp. 94-99).

13. Nortukhtaevna, T. R. (2018). Financial Problems in Uzbekistan during the Second World War and its

Results. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(3), 124-

130.

14. Tukhtaeva, R. N. (2022). Financial Policy in the Turkestan ASSR and its Essence in the Early Years of Soviet

Government. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2(2), 9-13.

15. Tukhtaeva, R. N. (2022, February). FISCAL POLICY IN THE KHOREZM REPUBLIC AND ITS IMPACT ON

SOCIO-ECONOMIC LIFE. In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological

Analyses (pp. 66-68).

16. Jabborova, I. X. (2021). IRRIGATION STRUCTURES IN KASHKADARYO OASIS. In НАУКА И ТЕХНИКА.

МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ПСИХОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ

(pp. 15-19).

17. ЖАББОРОВА, И. Х. (2021). ЎЗБЕКИСТОН СУҒОРИШ ТАРИХИНИНГЗАХМАТКАШ ТАДҚИҚОТЧИСИ ВА

ЗУККО МЕЪМОРИ. In Uzbek Conference Publishing Hub (Vol. 1, No. 01, pp. 54-58).

18. Xujamurotovna, J. I. (2020). Study of irrigation history of the kashkadarya oasis. International Journal of Psychosocial

Rehabilitation, 24(6), 3047-3051.

19. Khujamuratovna, J. I. (2022). MELIORATIVE CONDITION OF LAND IN THE OASIS OF KASHKADARYA IN

THE 50S OF THE 20TH CENTURY. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY

RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 118-122.

20. “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузиридаги Олий аттестация комиссияси (Ўзбекистон Республикаси ОАК)ни ташкил қилиш тўғрисида”ги 371-сон фармони (1992 йил 31 март).

21. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий малакали илмий ва илмий-педагогик кадрларни тайёрлаш ва аттестациядан ўтказиш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 4456-сонли фармонини (2012 йил 24 июль).

22. “Ўзбекистон Республикаси Фан ва техника давлат қўмитасини ташкил этиш тўғрисида”ги фармони (1992 йил 18 февраль).

23. “Илм-фанни давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш ва инновация фаолиятини ривожлантириш тўғрисида”ги 438-сон фармони (1992 йил 8 июль).

24. “Хоразм Маъмун академиясини қайтадан ташкил этиш тўғрисида”ги 1880-сон фармони (1997 йил 11 ноябрь).

25. “Илмий-тадқиқот фаолиятини ташкил этишни такомиллаштириш тўғрисида”ги фармони (2002 йил 20 февраль).

26. “Илмий-тадқиқот фаолиятини мувофиқлаштириш ва бошқаришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 436-сон қарори (2006 йил 7 август).

27. “Инновацион лойиҳа ва техонологияларни ишлаб чиқаришга татбиқ этишни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори (2008 йил 15 июль).

28. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ–4958-сон “Олий ўқув юртидан кейинги таълим тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони (2017 йил 16 февраль).

29. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Олий таълимдан кейинги таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 304-сон қарори (2017 йил 22 май).

30. Rajabova N.N. Early stages of archaeological study of the Kashkadarya oasis // CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY 2(7): 26-33, July 2021. P. 26-33.

31. Ражабова Н. История изучения археологических работ кафедры археологии НУУз на территории Кашкадарьи (90-е годы XX – нач. XXI в.). Наука и современность / Евразийское научное объединение. XLVII Международная научная конференция. Январь (2019). Часть 7. С. 377-379